

**AN'ANAVIY MILLIY LIBOSLAR ZAMONAVIY LIBOSLAR DIZAYNINING  
TUGANMAS MANBASIDIR**

**Ismoilova Ra'no Muzaffarovna**

*texnika fanlari nomzodi (PhD), dotsent*

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

**O'roqova Iroda To'ychi qizi**

*magistratura talabasi*

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola zamonaviy liboslarni yaratishda turli tarixiy davrdagi o'zbek milliy etno kostyumlarini adabiy etno-manbalarda o'rganilganlik darajasini taxlil qilish asosida milliy kiyimlar axborot ta'minotini ishlab chiqishga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** *mato, xalq, to'qimachilik, milliy, Samarqand, bezak, zeb-ziynatlar, kashta.*

**ТРАДИЦИОННЫЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ КОСТЮМЫ КАК  
НЕИССЯКАЕМЫЙ ИСТОЧНИК СОВРЕМЕННОГО ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ**

**Исмоилова Рано Музаффаровна**

*техника фанлари номзоди (PhD), доцент*

*Национальный институт художества и дизайна имени Камолиддина Бехзода*

**Ороқова Ирода Тойчи қизи**

*студент магистратуры*

*Национальный институт художества и дизайна имени Камолиддина Бехзода*

**Аннотация;** *данная статья посвящена разработке информационного обеспечения национальных костюмов на основе анализа степени изученности узбекских национальных этнокостюмов различных исторических периодов в литературных этно-источниках при создании современных костюмов.*

**Ключевые слова:** *ткань, народный, текстильный, национальный, Самаркандский, орнамент, украшения, вышивка.*

**TRADITIONAL NATIONAL COSTUMES AS AN INEXHAUSTIBLE SOURCE  
OF MODERN FASHION DESIGN**

**Ismoilova Rano Muzaffarovna**

*technique Candidate of Sciences (PhD), Associate Professor*

*National Institute of Fine Arts and Design, named after Kamoliddin Bekhzod*

**Urokovna Iroda**

*students magistrates*

*National Institute of Fine Arts and Design, named after Kamoliddin Bekhzod*

**Annotation:** *this article is devoted to the development of the information supply of national clothing based on the assumption of the level of study of Uzbek national ethno costumes of various historical periods in literary ethno-sources in the creation of modern costumes.*

**Keywords:** *fabric, folk, textile, national, Samarkand, decoration, ornaments, embroidery.*

Bugungi kunda kiyinish madaniyati davr muammolaridan biri hisoblanar ekan, milliy qardiyatlarimiz hisoblanmish, milliy an'anaviy liboslarimiz yoshlarni tarbiyalashda muhim omillardan biridir. Jumladan, yosh avlodni ma'naviy-madaniy va axloqiy yetuk, ruhan barkamol, yuksak didli qilib tarbiyalashda o'zbek kostyumi milliy an'analarining ham roli kattadir.

Zamonaviy moda yo'nalishlaridan biri bo'lgan - etnoustlub dizaynerlarning zamonaviy liboslarini yaratish bosqichida muxim o'rin egallaydi. Bu yo'nalish kiyim assortimentini turli xalq kostyumlarining milliy elementlari bilan boyitish ko'zda tutiladi. Bunday boyitish zamonaviy inson o'z milliy ildizlari bilan aloqani yo'qotmasligi uchun muxim ahamiyatga egadir. Etnoustlubni rivojlantirishda o'zbek milliy libosining nafis, viqor va did bilan bezalgan kostyum elementlari tuganmas manbai xisoblanadi.

Yangi texnologiyalar va matolarning bo'lishiga qaramay hozirgi kunda dizaynerlarning mualliflik kolleksiyalarini va eksklyuziv modellarini yaratishda o'zbek milliy kiyimlarining etnoelementlari asosiy manba xisoblanadi. Dizaynerlarning ijodiy faoliyati jarayonida milliy kiyimlar xaqidagi ma'lumotlarni olish oson, aniq va tushunarli bo'lishi uchun ularning asl manbalari bilan o'zaro bog'liqligi muxim ahamiyatga ega bo'lib, bu esa o'zbek milliy kiyimlar axborot bazasini yaratish taqqazo etadi.

Ushbu masalani yechishda o'zbek milliy etnografik kostyumini axborot bazasini yaratish maqsadida O'zbekistonning barcha viloyatlarining turli tarixiy davrdagi etnokostyumlarini o'rganib, taxlil qilish lozimdir.

Mukkamal saviyadagi o'zbek etno kostyumlarida amaliy bezak san'at turlari, yuqori estetik afzalliklari, utilitar va iqtisodiy funksiyalari ajoyib tarzda mujassamlashgan. Badiiy shakllarning mukkamal ifodasining o'zaro bog'liqligi etnodizaynning yorqin namunalarini aks ettiradi va xar bir namuna individual tavsifga egadir. O'zbek kostyumining asosiy ajralib turuvchi belgilari - shakli va silueti, mato va rangi, bichini va uzunligi, taqilma va bezak turlari.

Zamonaviy kiyimlarni loyixalash jarayonida o'zbek milliy kostyum elementlarini qo'llashni yengillashtirish uchun yangi texnologik yechimlarni tizimlashtirish uchun taxlil va asosiy tavsif ko'rsatkichlarni aniqlash lozimdir. Buning uchun turli tarixiy davrdagi o'zbek milliy etno kostyumlarini adabiy etno-manbalarda o'rganilganlik darajasini taxlil qilish va Samarqand viloyati kostyumi misolida ma'lumotlar tizimlash vazifasi qo'yildi

O'zbekiston hududida to'qimachilik qadim zamondan rivojlangan. Samarqandning yuqori sifatlil gazlamalari X asrlardayoq Suriya, Misr, Xuroson, Vizantiya kabi mamlakatlarda keng foydalanilgan.

XV asrda modaning Xirot va Samarqand singari ikkita asosiy markazi ma'lum bo'lib, XV asrning ikkinchi yarmida Xirot moda tarqatuvchi yagona markazga aylandi. Aslzodalar

kiyim-kechagida avvalgidek kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezak solingan yorqin rangli gazlamalardan keng foydalanilgan. Amir Temur davridayoq shohona libos sifatida urf bo'lgan beli bo'g'masiz keng ko'ylaklar, Ulug'bek ustidagi och-ko'kintir libos, boshqa personajlar liboslarining pushti, binafsha ranglari libos koloritga boy bo'lganidan dalolat beradi. Ulug'bek davrida Samarqandda shu kabi liboslarni tikish davom etsada, Xirot va Sheroz liboslarida o'zgarishlar kuzatiladi. Samarqand miniaturalaridagi liboslar Xirot va Sheroz miniaturalaridagi liboslaridan farqlanadi. Saroy a'yonlarining liboslarida bir muncha farqlar bor. Samarqand a'yonlari kamar taqib, unga shamshir osib yurishlari shart bo'lgan.

Temuriylar saltanatidagi hududlarda XV asrga xos bo'lgan kiyimlar turli-tumanligi libos rusumi tez-tez almashib turganligi, Samarqand, Xirot, Sheroz kabi joylarda o'ziga xos mahalliy liboslar mavjud bo'lganligi bilan belgilanadi. Temuriylar saltanatining mazkur poytaxt shaharlarida mahalliy libos turlarining o'ziga xos jihatlarni rivojlantirish, ularni saqlab qolish va takomillashtirishga intilish bo'lgan. Malikalar, saroy va bayramlarda ham xalq, omma oldida ochiq yuz bilan yurib, mehmonlarni qarshilaganlar.

Samarqandda yaratilgan miniatura asarlaridan ko'rinadiki, O'rta Osiyo liboslarida mo'g'ul-hind kiyimiga xos xususiyatlar paydo bo'lgan. Ana shu yaqin hamkorlik O'rta Osiyo liboslariga yanada kuchliroq ta'sir qilib, uni yangi shakldagi kiyimlar, matolar, bosh kiyimlar bilan boyitgan.

Buxoro va Samarqand milliy kiyimlari serhashamligi va noyob zardo'zi kashtalari bilan ajralib turgan.

Ayollar kiyim-kechagini zeb-ziynatlar hamisha bezab, ko'rkiga ko'rk qo'shib kelgan. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalar to'qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan. O'tmishda xotin-kizlarning asosiy an'anaviy ichki kiyimi uzun ko'ylak hamda lozimdan iborat bo'lgan. Ko'ylakning etagi to'ppiqqacha tushib, etak qismi kengayib borgan. Qizlar kiyadigan ko'ylakning yoqasi yotiq bo'lib, chetlari boshqa rangdagi mato bo'lagidan mag'iz bilan tikib bezatilgan. Yoqani ikki tomonidan bog'ich o'rnatilib, tugma bilan qadab qo'yilgan. Turmush qurgan ayollar libosining yoqasi ko'krak o'rtasida taxminan 25 santimetr uzunlikda qiyiq olingan yirmoch shaklida bo'lib, ikki tarafi bog'ichlar bilan bog'lab yoki bir tomoniga tugma yoxud o'rtasidan qadab yurilgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida bunday yoqalarning chetlariga zar iplar bilan tikilgan jiyak (zexi kurta) tikilgan. Ko'ylak yenglari to'g'ri uzun olinib, bilaklar ustiga tushib turgan. Qishloq joylarda, ayniqsa, Zarafshon vodiysida ayollar yozda astarsiz chopon kiyib yurishgan. Shuningdek, Buxoro va Samarqand viloyatlarining xotin-qizlari orasida ham kishilik ustki kiyim sifatida yengil, faqat avradan iborat, uzun, oldi ochiq rumcha chopon kiyish rasm bo'lgan. Kelin-kuyovning uyiga uzatilayotgan paytda boshiga paranji yoki chopon yopib, yuzini xarir rumol bilan berkitishgan. (Mazkur odat Samarqand va Buxoroda keng tarqalgan). To'yni ertasi kuni "kelin salom" paytida kelin gul-naqshlar bilan bezatilgan rumolni o'ng qo'lida ushlab turgan. Samarqandda kelin sarposi 15-20 chiroyli ko'ylaklardan tashkil topib, hammasi odatda mahalliy va chetdan keltirilgan gazmollardan maxsus bichilgan, etaklari uzun bo'lib, ustidan mursak, kamzul, nimcha kabilar kiyib yurilgan.

Samaqqand, Buxoro viloyatlarida motam marosimida ayollarga oq ko'ylak kiyish va oq ro'mol o'rash rasm bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning milliy liboslarimiz o'tmishda ham atlas-u adraslarimizning rang-barangligiga o'xshab, xilma-xilligi, sifati, o'zining ramziy ornamentlari, matolarining nafisligi, pishiqligi va o'zining jozibasi bilan ayollar kiyimlarida maftunkorlik, erkaklar kiyimlarida esa ulug'vorlik kasb etib turgan.